ANTON CHEXOVNING “GAROV” HIKOYASIDA YURIST OBRAZINING MA`NAVIY KAMOLOTI VA MODDIY QADRIYATLARDAN VOZ KECHISH FALSAFASI

Rahmonova E’zoza Sherzod qizi
Buxoro Davlat pedagogika instituti
O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24473792

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rus adabiyotining yirik namoyondasi Anton Pavlovich Chexovning “Garov” hikoyasida ilgari surilgan falsafiy-axloqiy masalalar tadqiq etiladi.*

Xususan, yurist obrazining o`n besh yillik yolg`izlik davomida ruhiy jihatdan kamol topishi, moddiy va ma’naviy boyliklar o`rtasidagi tafovutning farqlanishi hamda ilmning inson dunyoqarashiga ta’siri badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.Shuningdek, insonning haqiqiy erkinligi va baxti moddiy imkoniyatlar bilan belgilanadimi yoki ma’naviy kamolot bilanmi,degan masalaga munosabat bildiradi.

Kalit so`zlar: *Anton Chexov, garov, yurist obrazi, ma’naviy kamolot, ruhiy yuksalish, falsafiy tahlil, donishmandlik.*

Keywords: *Anton Chexov, wager, lawyer, spiritual development, personal transformation, philosophycal analysis, wisdom.*

Ключевые слова: *ставка, образ юриста, духовное совершенствование, духовное возвышение, философский анализ, мудрость.*

Jahon, ayniqsa, rus adabiyotida insonning ichki dunyosi, ma’naviy izlanishlari va hayot mazmunini anglash jarayonini yoritishga bag`ishlangan asarlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday asarlarda insonning tashqi hayoti bilan ichki olami o`rtasidagi ziddiyatlar, moddiy manfaatlar va ma`naviy ehtiyojlar qarama-qarshiligi badiiy tahlil qilimadi. Rus adabiyotining mashhur vakili Anton Chexov ijodi ham ana shunday falsafiy-psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yozuvchining “Garov” hikoyasi inson hayotining qiymati, erkinlik, boylik, bilim va ma'naviy kamolot masalalarini o'zida mujassam etgan asarlardan biridir. Hikoyaning yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1889-yilda yozilgan va ilk bor "Новое время" gazetasida "Сказка" (“Ertak”), keyinchalik "Пари", ("Garov") nomi bilan chop etilgan. Yozuvchi o'sha vaqtda Saxalin oroliga sayohat qilgan va u yerda surgun qilingan mahbuslar hayotini o'rgangan edi. Bundan tashqari, o'lim jazosi va umrbod qamoq o'rtasidagi keskin farq ziyoli oilalar orasida bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelardi.Chexov ana shu dolzarb masalalarni badiiy asar markaziga olib chiqdi. Mazkur hikoyaning e'tibor markazida yuristning o'n besh yil davomida boshdan kechirgan ruhiy o'zgarishlari turadi. Uning dastlabki qarashlari bilan hikoya yakunidagi e'tiqodi o'rtasidagi tafovut inson tafakkurining o'zgaruvchanligi va ma'naviy izlanishlarining murakkabligini ko'rsatadi. Hikoya boshida yosh huquqshunos hayotni eng oliy qadriyat sifatida qabul qiladi.

Bankir bilan bo'lgan munosabatda u har qanday sharoitda yashashni o'limdan afzal deb biladi. Uning fikricha, inson erkinligidan mahrum etilgan taqdirda ham yashash imkoniyatidan voz kechmasligi lozim. Mazkur qarash qahramonning hayotga bo‘lgan dastlabki munosabati, yashashga intilishi va erkinlikni qadrlash tamoyillarini aks ettiradi.

Yuristning o‘n besh yillik ixtiyoriy qamoq hayoti uning dunyoqarashi va tafakkurida tub burilish yasaydi. Dastlab yengil adabiyotlarga murojaat qilgan qahramon vaqt o‘tishi bilan tarix, falsafa va ilohiyot kabi murakkab fanlarni o‘rganishga kirishadi. Shuningdek, olti tilni mukammal egallaydi. Darhaqiqat, kitoblar uning uchun tashqi dunyo bilan bog‘lovchi asosiy vositaga aylanadi. Bu jarayonda mutolaa oddiy vaqt o‘tkazish mashg‘ulotidan ma’naviy yuksalish darajasiga ko`tariladi. Yurist jismonan bir xonada qolgan bo‘lsa-da, ruhan turli davrlar, mamlakatlar, madaniyatlar va falsafiy qarashlar olamida kezadi. Natijada uning bilim doirasi kengayib, hayot, inson va borliq haqidagi tasavvurlari tubdan o‘zgaradi.

Hikoyaning muhim g‘oyalaridan biri bilim va donishmandlik tushunchalarining o‘zaro munosabatidir. Qahramon ilgari intilgan boylik, shuhrat va dunyoviy lazzatlarning nisbiy qiymatini anglab yetadi. Bu esa uning bilimlarni shunchaki o‘zlashtirishdan hayotiy xulosalar chiqarish bosqichiga o‘tganini ko‘rsatadi. Demak, Chexov talqinida bilim insonni nafaqat ma’lumotli qiladi, balki uni o‘z hayoti, istaklari va jamiyatda ustuvor sanaladigan qadriyatlar haqida teran mushohada yuritishga ham undaydi. Biroq asarda bilimning imkoniyatlari bilan bir qatorda uning muayyan chegaralari ham namoyon bo‘ladi. Huquqshunos insoniyat tarixi, muhabbat, tabiat, ilohiyot va jamiyat haqidagi bilimlarni kitoblar orqali o‘zlashtiradi. Ammo ularning barchasini real hayotda sinab ko‘rish va bevosita tajribadan o‘tkazish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Shu jihatdan uning ma’naviy kamolot yo‘li murakkab ichki kechinmalar va ziddiyatlar bilan kechadi. Yozuvchi bu orqali o‘quvchini bilimning haqiqiy mohiyati, uning hayotiy tajriba bilan bog‘liqligi haqida mushohada yuritishga undaydi.

Hikoya yakunida yuristning bankirga yozgan maktubi uning yangi dunyoqarashini yaqqol namoyon etadi. Unda qahramon moddiy boylik, shuhrat va dunyoviy manfaatlardan voz kechishini ta’kidlaydi. Bu qaror uning avvalgi istaklaridan ustun kelishi, ya’ni o‘z nafsi va ehtiroslarini boshqarishga intilishi sifatida talqin qilinadi. Yuristning haqiqiy g‘alabasi shundaki, u ilgari hayotidagi eng muhim maqsad deb bilgan mukofotdan ongli ravishda voz kechadi.Shu o‘rinda erkinlik tushunchasi ham yangicha mazmun kasb etadi:erkinlik faqat tashqi cheklovlardan xoli bo‘lish emas, balki insonning moddiy istaklar, boylik va dunyoviy manfaatlarga qaramlikdan xalos bo‘lishidir. Qahramonning tanlovi aynan shu ma’noda ma’naviy mustaqillikning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.Bankir obrazi bilan qiyoslanganda, mazkur g‘oya yanada oydinlashadi.

Bankir butun e’tiborini moddiy boyligini saqlab qolishga qaratgan bo‘lsa, huquqshunos aynan shu boylikdan voz kechishni ma’qul ko‘radi. Bir-biriga zid bo‘lgan bu ikki qarash orqali Chexov insonning haqiqiy qadri, hayot mazmuni va moddiy manfaatlarning inson ruhiyatiga ta’siri haqida mushohada yuritishga undaydi.

Yozuvchi Anton Chexovning «Garov» hikoyasi insonning ma’naviy izlanishlari, bilim orqali dunyoqarashining o‘zgarishi hamda moddiy qadriyatlarga munosabatining qayta shakllanishini yorituvchi falsafiy asardir. Yurist obrazining o‘n besh yillik ruhiy evolyutsiyasi orqali yozuvchi inson hayotining mazmuni faqat boylik, shuhrat yoki tashqi imkoniyatlar bilan belgilanmasligini ko‘rsatadi. Qahramonning ikki milliondan voz kechishi uning moddiy manfaatlardan yuqori turishga intilishi, hayotiy istaklarini qayta baholashi va ma’naviy mustaqillikka erishish yo‘lidagi qarori sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli yolg‘izlik uning hayotiy tajribasini cheklaganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Shu sababli qahramonning ma’naviy kamolotini mutlaq va bir yoqlama ijobiy hodisa sifatida baholash qiyin. Aynan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, bilim va hayotiy tajriba o‘rtasidagi mazkur ziddiyat asarning falsafiy teranligini ta’minlaydi.

Chexovning «Garov» hikoyasi o‘quvchini boylik va baxt, bilim va donishmandlik, erkinlik va ma’naviy mustaqillik tushunchalari haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oya shundan iboratki, inson faqat nimaga ega ekanligi bilan emas, balki hayotda nimalarni haqiqiy qadriyat va fazilat deb bilishi bilan ham baholanishi lozim.

Yozuvchi yurist va bankir obrazlari orqali moddiy manfaatlar hamda ma’naviy ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Bir qarashda, boylik inson uchun baxt va farovonlik manbayidek tuyuladi. Biroq asar voqealari rivojida bu tushunchaning xato ekanligi namoyon bo‘ladi. Chunki insonning moddiy jihatdan ta’minlanganligi uning ma’naviy jihatdan boyligini anglatmaydi. Xuddi shuningdek, ko‘p bilimga ega bo‘lish ham har doim hayotiy donishmandlikka erishilganini bildirmaydi.Shu bilan birga, asarda erkinlik tushunchasi ham o‘ziga xos falsafiy mazmun kasb etadi. Yurist jismonan erkinlikdan mahrum bo‘lgan holda yashasa-da, mutolaa va tafakkur orqali o‘zining ma’naviy dunyosini kengaytiradi. Bankir esa tashqi jihatdan erkin va moddiy imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, o‘z boyligini yo‘qotish qo‘rquvi ostida qoladi. Demak, Chexov erkinlikni faqat jismoniy imkoniyatlar bilan emas, balki insonning ichki dunyosi, mustaqil fikrlashi va moddiy manfaatlarga qaram bo‘lmasligi bilan ham bog‘laydi.

Hikoyaning yana bir muhim jihati shundaki, unda insonning hayotiy qarorlari va vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan qadriyatlari masalasi ko‘tariladi. Yuristning ikki milliondan voz kechishi o‘quvchini inson o‘z hayoti davomida nimaga intilishi, qanday maqsadlarni ustuvor bilishi va moddiy manfaatlar uchun nimalardan yuz o‘girish mumkinligi haqida o‘ylashga undaydi.

Ayniqsa, bankirning boylikni saqlab qolish uchun qilgan harakatlari bilan huquqshunosning undan ixtiyoriy ravishda voz kechishi o‘rtasidagi qarama-qarshilik asarning asosiy g‘oyasini yanada kuchaytiradi.

Asar yakunida Chexov inson hayotini faqat moddiy yutuqlar, tashqi muvaffaqiyat yoki jamiyatdagi mavqe bilan o‘lchash mumkin emasligini anglatadi. Inson uchun eng muhim masalalardan biri — o‘z hayotining mazmunini anglash, mustaqil fikrlash va haqiqiy qadriyatlarni soxta manfaatlardan farqlay olishdir. Biroq yozuvchi bu borada biryoqlama xulosa chiqarmaydi, balki qahramonlar taqdiri orqali o‘quvchining o‘ziga fikrlash imkoniyatini beradi. Shu jihatdan «Garov» nafaqat muayyan davr insonlari hayotini aks ettiruvchi hikoya, balki bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan falsafiy asardir. Zero, insonning haqiqiy boyligi uning qo‘lga kiritgan mol-mulki bilan emas, balki tafakkuri, ma’naviy olami, hayotga munosabati va o‘z qadriyatlarini anglay olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chexov, A. P. Tanlangan asarlar. — Toshkent.
2. Chexov, A. P. Garov (hikoya). — 1889.
3. Karimov, N. XIX asr rus adabiyoti tarixi. — Toshkent.
4. G‘ulomov, A. Jahon adabiyoti tarixi. — Toshkent.
5. Jahon adabiyoti tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. — Toshkent.
6. Adabiyotshunoslikka kirish. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.